

AXLATNI QAYTA ISHLASH



Pokiza shahar

Xorazm viloyatida Pitnak degan shaharcha bor. Bir kuni shahar hokimi shaharni aylanib yurib, hamma joyda chiqindilar uyulib yotganini, chiqindi tashuvchi xizmatlar ularni olib ketishga ulgurmayotganini ko'rib qoldi.

Hokim shahar ko'chalaridagi chiqindi qanday to'planishini kuzata boshladi. Odatda xonadonlardagi chiqindilarni tashlab kelish 7-9 yashar bolalarga buyurilar ekan. Bolalar esa ko'pincha chiqindi solingan qopchalarni maxsus qutilarga olib borib tashlashga erinib, ko'cha chetiga tashlab ketar ekan. Oqibatda, siniq deraza nazariyasiga muvofiq ko'chalar chiqindilarga to'lib ketar ekan.

Hokim o'quv yili boshida maktablarga borib, bolalar bilan uchrashdi.

– Kim top-toza shaharda yashashni istaydi? – deb so'radi u bolalardan.

– Men! – deb baralla javob berdi hamma bolalar.



“Siniq deraza nazariyasi” nima? Bu odamlarning mayda qonunbuzarliklarga beparvoligidir. Agar bino derazasidagi bitta oyna sinsa, ko'p o'tmay uning qolgan oynalarini ham sindirishar ekan. Kimdir daraxt tagiga chiqindi tashlab ketsa, ko'p o'tmay bu joy axlatxonaga aylanib ketar ekan.



– Yaxshi, orangizda kim uydagi chiqindilarni tashlab keladi? Qo'lini ko'tarsin!

Deyarli hamma bolalar qo'lini ko'tardi.

– Juda soz. Ko'rdingizmi, shahrimizning ozoda bo'lishi sizlarga bog'liq. Bu har birimizning zimmamizdagi juda muhim vazifa. Sizlardan iltimosim chiqindilarni faqat belgilangan joylarga tashlang. Shunday qilsak, tez orada buning natijasini ko'rishimizga ishonaman.

Hokim bolalar bilan tozalik, bolalarning bu ishdagi majburiyati va mas'uliyati haqida uzoq suhbatlashdi. Xuddi katta va ziyoli odamlar bilan gaplashgandek jiddiy gaplashdi. U bolalarga kattalar bilan qanday gaplashishni, o'z fikrini qanday asoslab berishni o'rgatdi.

Rostdan ham, ko'p o'tmay mo'jiza yuz berdi. Shaharda chiqindilar kamaya boshladi. Bolalar chiqindini faqat axlat qutisiga tashlaydigan, ko'chada, jamoat joylarida tozalikka rioya qiladigan bo'lishdi. Xullas, bolalar ona shaharlarining obodligi o'zlariga bog'liqligini tushunib yyetdilar. Holat yaxshi tomonga o'zgarayotganidan o'zlari ham xursand bo'ldilar. Ular uka-singillariga ham "pokiza shahar qoidalari"ni o'rgata boshladilar. Buni ko'rgan kattalar ham axlatni duch kelgan joyga tashlashga uyalib qolishdi. Shunday qilib O'zbekistonda eng pokiza shahar paydo bo'ldi.



Nima deb o'ylaysiz, bolalar qanday qoidalarga rioya qilishga kelishib oldilar?





Biz axlatga tashlab yuboradigan juda ko'p narsalarni qayta ishlab, eritib, undan yangi mahsulot ishlab chiqarsa bo'ladi. Bu jarayon qayta ishlash deb ataladi.

Ko'pgina mamlakatlarda odamlar chiqindilarni saralab, axlatxonaga alohida-alohida yuborishga odatlangan. Axlatga tashlanadigan qog'ozlarni ajratib, uni maxsus konteynerga solayotgan har bir odam bir nechta daraxtni qutqarib qolgan bo'ladi. Chunki bunday qog'ozlarni qayta ishlab, undan yangi, foydali narsalar ishlab chiqarish mumkin. Masalan, chiqindi qog'ozlardan salfetka, qog'oz xalta va sochiqlar, hojatxona qog'ozlari ishlab chiqariladi.



Shvesiyada chiqindilarni maxsus korxonalarda yoqib, undan elektr va issiqlik energiyasi olinar ekan. Buni qarangki, hadeb yoqilaverganidan chiqindilar tugab qolibdi. Korxonalar esa ishlashi kerak. Shunda Shvesiya davlati qo'shni davlatlardan chiqindilar olishni boshlabdi. Boshqa davlatlar chiqindini olib ketganligi uchun pul to'lar ekan. Shvesiya esa ularni yoqib, elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarar ekan.

Har birimiz ekologiyaga qanday yordam bera olamiz?

1. Plastik pakatlardan ko'p foydalanmaslik uchun do'konga o'zimiz xalta yoki ryukzak olib borishni odat qilaylik. Olgan narsalarni ham ortiqcha paketlarga solavermaylik. Shunda uyimizda ortiqcha paketlar to'planib qolmaydi.



2. Tejamkor bo'laylik, keragidan ortiq oziq-ovqat sotib olmaylik. Bobo-buvilarimiz isrofdan, uvoldan juda qo'rqishgan. Isrofgarchilikni og'ir gunoh deb bilishgan. Kim nimani xor qilsa, kuni kelib, o'sha narsaga zor bo'ladi. Biz esa oxirigacha yeyilmagan pishiriqni, yarimta konfet yoki olmani axlatga tashlayveramiz. Chiqindini ko'paytirmaslik uchun qancha yeya olsak, shuncha narsa olishimiz kerak.

3. Har qanday eski narsaga ham yangitdan hayot bag'ishlash mumkin. Eski kiyimni qayta tikib, yangi va zamonaviy tus bersa bo'ladi. Plastmassa buyumlar va bir martalik idishlardan juda ko'p foydali, chiroyli narsalar yasash mumkin. Har bir narsa bizga uzoq xizmat qilsin.

